

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI  
ERON-AFG'ON FILOLOGIYASI KAFEDRASI**

**Ishoqov Sarvar**

**Hozirgi dariy tilida turkiy o'zlashmalar  
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar: f.f.n.dots. Alimova X**

Bitiruv malakaviy ishdagi dariy tiliga o'zlashgan va dariy adabiy tili hamda so'zlashuv nutqida qo'llanilib kelayotgan turkiy tilga oid so'zlarni tematik guruhlarga ajratib, ulardagi o'zlashish jarayonida ro'y bergan fonetik, orfografik, va semantik o'zgarishlarni differensial tahlil qilinadi.

**Toshkent 2012**

## Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Sharq filologiyasi va falsafa”

fakulteti dekani

f.f.n., dots. J.T. Ziyamuhamedov

\_\_\_\_\_

“ ” \_\_\_\_\_2012yil

“Eron-afg‘on filologiyasi”

kafedrası mudiri

f.f.n., dots. X.Z. Alimova

\_\_\_\_\_

“ ” \_\_\_\_\_2012yil

## **MUNDARIJA:**

### **KIRISH**

#### **I BOB**

#### **DARIY TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALARNING MORFOLOGIK TAHLILI**

##### **1.1. Ot.**

##### **1.1.1. Shaxs otlari.**

##### **1.1.2. Narsa-buyum otlari.**

##### **1.1.3. O‘rin-joy otlari.**

##### **1.1.4. Mavhum otlar.**

##### **1.2. Sifat.**

##### **1.3. Turkiy so‘z yasovchi vositalar.**

#### **II BOB**

#### **DARIY TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI**

##### **2.1. Dariy tilidagi turkiy o‘zlashmalarda ma’no torayishi**

##### **2.2. Dariy tilidagi turkiy o‘zlashmalarda ma’no kengayishi**

##### **2.3. Dariy tilidagi turkiy o‘zlashmalarda fonetik, morfologik va grammatik o‘zgarishlar**

### **XULOSA**

### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **ILOVA**

## KIRISH

*Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi –  
bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi*  
(I.A. Karimov).

Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak<sup>1</sup>.

**Mavzuning dolzarbligi.** Har qanday milliy tilning lug'at tarkibi, uning jami so'z boyligi mazkur millatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan hodisadir. U doimo harakatda va o'sishda bo'ladi. Tilning rivojlanish samarasi esa, asosan ikki omilga, uning ichki va tashqi o'sish manbalaridan qanday foydalana bilishga bog'liq bo'ladi.

Mazkur ishda asosan tashqi manbalar ta'sirida yuz bergan dariy tilidagi miqdor va sifat o'zgarishlarni o'rganishga harakat qilindi. Unda turkiy tildan dariy tiliga kirib kelgan o'zlashmalarni differensial (til va birliklarning shakl, mazmun va boshqa jihatdan o'zaro ajratilishi, qatlamlanishi, so'zlarning fonetik va ma'no jihatdan o'zaro alohidalanishi) tahlil qilish ko'zda tutildi. Zero, dariy tilining lug'at tarkibi undagi so'zlarning etimologiyasi, imlo, talaffuz va anglatadigan ma'nolari bilan qiziqqan har bir kishi, dariy tili va so'zlashuv nutqida turkiy tilga oid bo'lgan bir qatlam til birliklarini payqashi qiyin emas. Hozirgi dariy tilshunosligida o'zlashmalarni o'rganish dolzarb va ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Dariy tilida turkiy tildan o'zlashmalar mavzusida shu kunga qadar ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borilmagan. Mazkur ish bu mavzu bo'yicha dastlabki amaliy ishdir. O'zlashmalar mavzusi to'liq o'rganilmagan. Bu o'z navbatida ilmiy tekshirish ishlari, alohida ma'ruzalar, terminologiya bo'yicha qator qo'llanmalar, lug'atlar yaratishni talab qiladi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –Toshkent, 2009.

**Bitiruv malakaviy ishning manbalari.** A.Afgʻoniynavisning “افغان قاموس” uch jildli izohli lugʻati (Kobul, 1957-59), Muhammad Siddiqyorning “زبان دری و” ضرب المثلہای “(Peshovar, 2000), Inoyatulloh Shahroniyning “دری افغانستان” (AQSh, 1998), afgʻon yozuvchisi A.U.Koʻzagarning hikoyalar toʻplami olindi. Shuningdek, “afghanistan.ru”, “afghannews.com” internet saytlari va oʻzlashmalarga oid maqolalar tadqiqot ishining manbai boʻlib xizmat qildi.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishda asosiy eʼtiborni dariy tilining tashqi manbalar asosida roʻy bergan oʻziga xos rivojlanish qonuniyatlarini tarixiy-tadrijiy (diaxronik) kuzatish va shu tashqi taʼsirlar ostida yuz bergan hodisalarning ayrim bir davrlar, dariy tilining muayyan bir tarixiy bosqichlariga bogʻlab oʻrganish koʻzda tutildi.

Ishning asosiy maqsadi dariy tiliga turkiy tildan kirib kelgan soʻzlarni son va sifat jihatidan tahlil qilishdir. Ushbu ishni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

- 1) dariy tiliga oʻzlashgan va dariy adabiy tili hamda soʻzlashuv nutqida qoʻllanilib kelayotgan turkiy tilga oid soʻzlarni yigʻish, hajmini (taxminiy) aniqlash;
- 2) ularni tematik guruhlariga ajratish;
- 3) ulardagi oʻzlashish jarayonida roʻy bergan fonetik, orfografik, va semantik oʻzgarishlarni differensial tahlil qilish;
- 4) yigʻilgan misollar asosida oʻzlashmalarning turkiy va dariy tillaridagi hozirgi kundagi maʼnolarini ilova tarzida keltirish.

**Ishdagi ilmiy yangiliklar.** Ushbu bitiruv malakaviy ishida dariy tiliga oʻzlashgan turkiy oʻzlashmalar ajratib olinib, ular fonetik, leksik, semantik jihatdan tahlil qilindi va tematik guruhlariga ajratilib, foizlari aniqlandi. Bu dariy tilidagi turkiy tildan oʻzlashmalar boʻyicha qilingan dastlabki ilmiy izlanishdir.

**Ishning amaliy ahamiyati.** Mazkur bitiruv malakaviy ishi dariy tilida turkiy tildan oʻzlashmalar boʻyicha dastlabki tadqiqot boʻlganligi sababli, terminologiya sohasida ish olib borayotganlar uchun muhim manba boʻlishi mumkin. Turkiy tildan oʻzlashgan soʻzlarning alifbo tartibida berilganligi, tematik guruhlariga

ajratilganligi va yasalishi haqidagi ma'lumotlar ular uchun qator qulayliklar yaratadi.

**Ishning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

Ilm-fan, texnika taraqqiyoti, ijtimoiy hayotning ko'pchilik sohalaridagi yangiliklar mislsiz darajada yangi so'z va terminlar yaratdiki, bular dunyoning qaysi tilida va qaysi xalq tomonidan yaratilgan bo'lishiga qaramay, dariy tili lug'at tarkibining boyishiga, uning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir qilib kelyapti. Kirib kelgan yangi so'z va terminlar dariy tilining o'z ichki imkoniyatlariga suyangan holda qabul qilindi. Bu leksik birliklardan afg'on xalqi o'zining og'zaki va yozma nutqida faol foydalanib kelmoqda.

Agar so'z o'zlashuvining konkret sabablariga to'xtalinadigan bo'linsa, birinchi navbatda, shuni aytish kerakki, bir til ikkinchi bir tildan birorta so'z o'zlashtirish uchun shu o'zlashayotgan so'z qabul qiluvchi tilda bo'lmaganligi, u o'sha tilda zarur va hayotiy ehtiyoj bilan bog'liq bo'lgan narsani anglatib va ifodalab kelganligi asosiy omildir. Bu holatlar uchun, odatda, o'zga tildan qabul qilinayotgan narsa, predmet, hodisa va tushunchalar bilan ularning nomlarining o'zlashuvi xarakterli hisoblanadi. Bunday paytlarda qabul qiluvchi til juda tejamkor bo'lishga intiladi, binobarin, kirib kelayotgan yangiliklarni iloji boricha bir so'z tarzida o'zlashtiradi. Unga mahalliy tilda izoh berilib o'tirilmay, o'sha yangi narsa, hodisa yoki yangi tushuncha o'z holicha qabul qilinadi.

Biz mazkur ishda dariy tilida turkiy tildan o'zlashmalar bo'yicha jami 302 ta o'zlashma so'zni yig'ib, ularni tadqiq etish orqali turkiy o'zlashmalarning hozirgi bosqichdagi holati, grammatik xususiyatlarini atroflicha o'rganib chiqdik.

**Dariy tiliga turkiy o'zlashmalarning tarixiy ildizlari.** Afg'on xalqi bilan turli turkiy qabilalarning aloqalari uzoq tarixga borib taqaladi. Ilk turkiy so'zlarning ta'siri og'zaki tarzda kuzatiladi. Boshidanoq eroniy xalqlar qo'shni turkiy qabilalar leksikasining ovchilik va yilqichilik terminlaridan foydalanganlar:

قراقل *qaraqol* 'qorako'l',

قروت *qorut* 'qurt',

قيماغ/قيماق *qaimâq* ‘qaymoq’,

کوچ *koč* ‘ko‘chmanchi’,

قمچين *qamč'in* ‘qamchi’,

قروپوک *qerpuk* ‘qo‘rako‘l turi’,

قراقاش *qarâqoš* ‘qoraqosh’.

Turkiy leksikaning sezirarli ta'siri turkiylarning (XII-XVI asrlar) tub aholi bilan munosabatlari uzoq va yaqin doirada kechgan davrda bo'ldi. O'sha davr dariy tiliga turkcha so'zlarning ta'siri fors va tojik tillari uchun ham taalluqli edi:

اجاق/اجاق *ojaq* ‘o‘choq’,

اتاق *otâq* ‘xona’,

قاشق *qâšoq* ‘qoshiq’,

چادر *čâdar* ‘chodir’,

توشک *tôšak* ‘to‘shak’,

چپاک *čabôk* ‘epchil’,

باتلاق *bâtlâq* ‘botloq’,

صندوق *sandug* ‘sandiqlar’,

چقماق *čaqmâq* va *čaxmâq* ‘chaqmoqlar tosh’.

Eron bosqinchilarining Afg'onistonda uzoq boshqaruvi sezilarli iz qoldirdi. Safaviylar (XVI–XVII asrlar) va Nodirshoh Afshor (XVIII asr)lar qo'shinida turk bo'linmalari bo'lgani ma'lum. Hanuzgacha Afg'oniston hududi va shaharlarida qizilboshilar, Afg'onistonning ma'muriy hayotida hozirgi kungacha yuqori o'rin tutgan safaviylar qo'shinining avlodlari yashab kelmoqda. M.G. Aslanov qizilboshi “safaviylar harbiy tarkibning asosiy qismini tashkil etganini” ta'kidlaydi. Kobulda bir necha qishloqlarda afshor, turkiy qabilalarining ozarbayjon tilining arxaik lahjalarida so'zlashadigan kichik koloniyalari saqlanib qolgan. Safaviylar boshqaruvi davrida dariy tiliga turkiy tildan ma'muriy va rasmiy terminologiya o'zlashgan:

قابوچی *qabuči* ‘darvozabon’,

ایشک آغاسی/ایشک آغاسی *êšek-âğâsi/êšek-âğâsi* ‘havli vaziri (ministri)’, ‘bosh marosimchi’,

arz-begi 'amir konselyariyasi arzlarini qabul qiluvchisi',  
 diwân-begi 'devonbegi', 'boshliq', 'moliya va oziq-ovqat  
 masalalari bo'yicha boshliq' (amir davrida)  
 sursat 'non va don (amir kelganda xalqqa ulashilgan)',  
 me'mâr-bashi 'bosh me'mor',  
 dan-bashi 'o'nboshi',  
 bist-bashi 'yigirma kishilik bo'lim boshlig'i', shuningdek, yangi  
 paydo bo'lgan motarwan-bashi turkiy tildagi bashi elementining  
 qo'shma so'z yasallishida sarmahsulligini ko'rsatadi. Safaviylar armiyasi orqali  
 Afg'oniston, Hind va O'rta Osiyo tillariga ma'lum o'qotar qurollar nomlari kirib  
 keldi: tofang 'qurol' va tôp 'to'p, zambarak' kabi. Hozirgi kunda  
 Afg'oniston aholisi tarkibida turkiy etnik elementlar sezilarli darajada mavjud  
 bo'lib, asosan mamlakat shimolida o'zbeklar, turkmanlar qisman qirg'iz va  
 qozoqlar yashaydi. Dariy tilidagi turkiy o'zlashmalarning asosiy qismi o'zbek tili  
 orqali o'zlashgan, turkman tili orqali o'zlashmalar esa kam. Bu hayron qoladigan  
 holat emas. Qat'iylik bilan aytish mumkinki, Tojikistonning ba'zi viloyatlari  
 hududida kuzatiladigan o'zbek-tojik va turkman-tojik tillarining munosabatlari  
 Afg'oniston shimolida ham kuzatiladi. Dariy tilidagi o'zbekcha va turkmancha  
 so'zlar tarkibi tojik tilidagi turkiy o'zlashmalarga mos keladi :

čoqur 'chuqur', choquri 'cho'nqir', 'chuqurcha';  
 sôm 'so'm' va dah-sômi 'o'n so'mlik' (toj. сѸм, панч сѸм 'besh  
 so'm');  
 tanga 'tanga' (toj. таңга - 'tanga');  
 tôy 'to'y', 'basm' (toj. тѸй);  
 apa 'opa', opa (begona ayolga nisbatan murojaat) (toj. она);  
 kampêr 'kampir'.

Dariy tilidagi turkiy o'zlashmalarda oxirgi yuzyillik davomida turkiy tildan  
 o'zlashgan o'zlashmalar salmoqli o'rin tutadi. Bular Afg'onistondagi turk harbiy  
 muttaxislari orqali dariy tiliga (undan esa pashtu tiliga) o'zlashgan harbiy  
 terminlardir:



يغلمه *yôğlama* ‘yo‘qlama’; *yoqlame-ye hawâyi* ‘havo trevogasi’;  
قشله *qešla* ‘harbiy shaharcha’, ‘kazarma’, ‘harbiy qism’.

# **BIRINCHI BOB**

## **DARIY TILIDAGI TURKIY O‘ZLASHMALARNING**

### **MORFOLOGIK TAHLILI**

Dunyo tillari orasida bironta ham til yo‘qki, unda ozmi-ko‘pmi o‘zlashgan so‘z uchramasin yoki ma‘lum darajada aralashgan bo‘lmasin. Dunyo tillari umumiy soni ham oz emas. Hozirgi davrda 3000 dan ortiq til borligi qayd etilgan. Bu tillarning har birining o‘z tarixi, taqdiri, jamiyat hayotida tutgan o‘rni va mavqeyi bor. Bundan tashqari, ular o‘zaro munosabatda, hamkorlik, bir-biridan so‘z qabul qilish va o‘zlashtirish kabi xarakterlovchi belgi hamda xususiyatlarga ega. Bu masalalar, ayniqsa, qaysi sabablarga ko‘ra bir til lug‘at tarkibidagi so‘z ikkinchi bir tilga o‘tadi, qanday qilib u qabul qiluvchi til lug‘at tarkibiga o‘zlashib, singib ketadi? kabi savollar tilshunoslarni qiziqtirib keladi<sup>2</sup>.

Uzoq o‘tmishga nazar tashlansa, chet so‘zlar asosan o‘zga tillarga og‘zaki muomala yo‘li bilan (chunki yozuv bo‘lmagan) o‘tganligini ko‘ramiz. Og‘zaki muomala esa yaqin qo‘shnichlikda, xalqlarning bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chib o‘tishda (migratsiya), savdo va oldi-sotdi ishlarida yoki juda bo‘lmasa bir-birlari bilan urushlar olib borganlarida yuz bergan.

Agar so‘z o‘zlashuvining sabablariga to‘xtaladigan bo‘linsa, birinchi navbatda, shuni aytish kerakki, bir til ikkinchi bir tildan birorta so‘z o‘zlashtirishi uchun shu o‘zlashayotgan so‘z qabul qiluvchi tilda bo‘lmaganligi, u o‘sha tilda zarur va hayotiy ehtiyoj bilan bog‘liq bo‘lgan narsani anglatib va ifodalab kelganligi asosiy omildir. Bu holatlar uchun odatda, o‘zga tildan qabul qilinayotgan narsa, predmet, hodisa va tushunchalar bilan ularning nomlarining o‘zlashuvi xarakterli hisoblanadi. Bunday paytlarda qabul qiluvchi til juda tejamkor bo‘lishga intiladi, binobarin, kirib kelayotgan yangiliklarni iloji boricha, bir so‘z tarzida o‘zlashtiradi. Unga mahalliy tilda izoh berilib o‘tirilmay, o‘sha yangi narsa, hodisa yoki yangi tushuncha o‘z holicha qabul qilinadi. Masalan:

---

<sup>2</sup> Jumaniyozov O. O‘zbek tiliga german tilidan o‘zlashgan o‘zlashmalar. - , . - .

يتاق *yatâq* ‘yotoq’;  
 قماق *qamâq* ‘qamoq’;  
 دار *dâr* ‘dor’;  
 فاش *qâš* ‘qosh’;  
 قلچاق *qâčâq* ‘kontrabanda’;  
 قاتق *qâteq* ‘yemish’, ‘non bilan yeyiladigan hamma ovqat’;  
 سيورغال (*soyurğâl*) ‘suyurg‘ol’, ‘in‘om (o‘rta asrlarda feodal tomonidan o‘z vassaliga berilgan yer-suv, mulk va undan olinadigan soliq, o‘lpon)’;  
 سراغ *sôrâğ* (*nishon va iz*) ‘so‘roq’; ‘qidiruv’; ‘ma‘lumot’, ‘so‘roq’;  
 يرغه (*yorğa*) ‘yo‘rg‘alash’, ‘yo‘rg‘a(ot)’;  
 ياغي *yâğî* ‘yog‘iy’, ‘dushman’;  
 توی *tôy* ‘to‘y’, ‘basm’ (تویانه *tôyâna* – ‘to‘yga xoslibos’; ‘to‘yana (sovg‘a)’);  
 ياغ *yâğ* ‘yog’;  
 تومان *tuman* ‘10 minglik polk’, ‘diviziya bir necha polkdan iborat harbiy qism’.

Keyingi yillarda tillarning o‘zaro ta’siri qonuniyatlarini aniqlash, chet so‘zlarning boshqa tillarga o‘zlashish sabablari va xususiyatlarini o‘rganish, ularning o‘zlashgan tillardagi roli va funksiyasini belgilash kabi bir qator masalalar dunyo tilshunoslari tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Binobarin, dunyodagi mavjud rivojlangan tillarning deyarli hammasida ozmi-ko‘pmi o‘zlashgan so‘zlar, iboralar uchrashi, hatto ayrim tillarning aralashib ketganlik xususiyatlari, avvalo, tilshunoslarning, qolaversa, tilga e’tibori bo‘lgan har bir kishining ham diqqatini o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa, chet so‘zlarning o‘zlashayotgan tilning adabiy va so‘zlashuv nutqiga o‘tib, hayotiy va ilmiy-zaruriy narsa va hodisalarni nomlash, qabul qilishi til qonuniyatlariga tezda bo‘ysunishi, o‘zlashgan til egalariga yotligi bilinmay xuddi ona tilidagiday bo‘lib, moslashib ketaverishi kabi obyektiv faktlar so‘z o‘zlashuvi masalasini tilshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biriga aylantirdi.

Qo‘shimcha qilib yana shuni aytish kerakki, tillarning o‘zaro munosabati va so‘z o‘zlashuvi faqat og‘zaki muomalada emas, balki qardosh va chet el

adabiyotining (kitob va gazetalari) mutolaasida va tarjima faoliyatida ham keng miqyosda ishtirok etishni taqozo etadi.

“O‘zbek tili leksikologiyasi” kitobida rus tilshunoslaridan I.R.Krisin, N.M.Shanskiy, A.V.Kalin, M.I.Fomina, V.V.Akulenko, N.Sharapovlar ishlariga murojaat qilingani holda so‘z o‘zlashtirish ta’rifiga quyidagicha fikr bildiriladi: “O‘zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma’lum til elementlarining ko‘chishi, kirishidir”<sup>3</sup>.

Ma’lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so‘z tabiiy ravishda o‘sha tilning fonetik, orfografik, grammatik elagidan o‘tadi. Bunda so‘z o‘qilishi, yozilishi va tuzilishi bo‘yicha o‘zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta’siri ostida ayrim o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, ya’ni chet so‘zlar qabul qiluvchi til izmiga ma’lum darajada bo‘ysunadi. Ular boshqacha o‘qilishi, boshqacha yozilishi, ayrim harf va tovushlarning tushib qoldirilishi yoki ortiqcha qo‘shib aytilishi, hatto shakli va qiyofasini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Bir tildan ikkinchi tilga kirib kelib, chet so‘zning qaydarajada qabul qiluvchi tilga o‘zlashib ketganligini aniqlash, ayniqsa ularni chet so‘z va o‘zlashmalarga ajratishning qiyin ekanligi ilmiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanib kelinmoqda<sup>4</sup>.

O‘zlashgan so‘zlar olimlar tomonidan, avvalo, ikki ko‘rinishda, ya’ni chet so‘z va o‘zlashmalarga bo‘linib, tahlil qilinadi: Agar o‘zlashgan so‘z o‘zi qabul qilingan tilga singishib, fonetik, orfografik, grammatik jihatdan moslashib ketsa, uni o‘zlashma, begonaligicha qolaversa, uni chet so‘z deb nomlashning o‘zi kifoya bo‘lgan bu jarayon olimlar tomonidan turlicha izohlanildi.

### **1.1. Ot**

Hozirgi dariy tilidagi turkiy o‘zlashmalar boshqa arabiy va yevropa tillaridan kirgan o‘zlashmalar singari dariy tili lug‘at tarkibidan muqim o‘rin olib bo‘lgan.

---

<sup>3</sup> O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent, 1981. – B. 83-84.

<sup>4</sup> Маковский М.М. К проблеме так называемой «интернациональной лексики»//Вопросы языкознания. – М., 1960.

Turkiy o‘zlashmalar dariy tili lug‘at tarkibidan joy olgach grammatik moslashuvning bir bosqichi bo‘lgan morfologik moslashuv jarayonini boshidan kechiradi.

Morfologik moslashuvda turkiy tillardan o‘zlashgan so‘z turkumi, dariy tilida shu so‘z turkumiga oid grammatik kategoriyalarga moslashgan. Bunda agar o‘zlashma ot so‘z turkumiga oid bo‘lsa ko‘plik kategoriyasi, otdan so‘z yasash usullariga, sifat so‘z turkumiga oid bo‘lsa sifatlarning qiyosiy va orttirma darajasiga va so‘z yasash moddellariga, fe‘lga tegishli bo‘lsa fe‘lning so‘z yasash, zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga moslashadi<sup>5</sup>.

Har qanday tilda ham o‘zlashma so‘zlar juda oson o‘zlashib va moslashib ketadi, chunki ular o‘zlashtirayotgan tilning grammatik sistemasi ixtiyoriga o‘tadi, o‘z so‘zlari huquqini oladi. Materiallarimiz tahlili turkiy tildan dariy tiliga asosan ot va sifat so‘z turkumlariga oid leksik birliklar o‘zlashganligini ko‘rsatdi. Quyida ot so‘z turkumiga oid o‘zlashmalarning leksik-semantik tahlili o‘tkazildi.

Jami to‘plangan 302 ta turkiy o‘zlashmaning 279 tasi (92 %) ot so‘z turkumiga, 21 tasi (8 %) sifat so‘z turkumiga oid ekanligi aniqlandi.

### 1.1.1. Shaxs otlari

To‘plangan misollarimizda shaxs otlari jami turkiy o‘zlashmalarning 29 % ini (82 ta) tashkil etdi.

#### Shaxs otlari (jami 82 ta)

|           |            |                                               |
|-----------|------------|-----------------------------------------------|
| اتا       | âtâ        | ota (turklar otasi, otaturk)                  |
| آپە       | apa        | opa, opa (begona ayolga nisbatan murojaat)    |
| افندی     | afandi     | afandi, og‘a                                  |
| آقا       | âqâ        | xo‘jayin, to‘ra, taqsir, janob                |
| اتابک     | âtâbek     | murabbiy, rahbar; sultonlar naslining vasiysi |
| بيست باشی | bist-bashi | yigirma kishilik bo‘lim boshlig‘i             |
| بيگ/بگ    | Beg/bek    | bek                                           |

<sup>5</sup> A.Quronbekov “Fors tili leksikologiyasi” T., 2008.63-bet

|                 |               |                                                                                                                     |
|-----------------|---------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| توپچی           | tôpči         | to‘pchi askar                                                                                                       |
| جارچی           | járči         | jarchi                                                                                                              |
| خان             | xân           | xon, feodal                                                                                                         |
| خان خانان       | xân-ê xânân   | xonlar xoni                                                                                                         |
| خاقان           | xâqân         | xoqon (qadimda xitoy va turkiston podshohlari shunday atalgan)                                                      |
| دان باشی        | dan-bashi     | o‘nboshi                                                                                                            |
| دلماج           | tarjômân      | tarjimon                                                                                                            |
| دیوان بیگی      | diwân-begi    | devonbegi, boshliq, moliya va oziq-ovqat masalalari bo‘yicha boshliq (amir davrida)                                 |
| صندوقدار        | sanduqdâr     | kassachi, xazinachi, g‘aznachi                                                                                      |
| عرض بگی         | arzbegi       | amir konselyariyasi arzlarini qabul qiluvchisi                                                                      |
| قاپوچی / قاسوچی | qabuči        | shvetsar, darbor, davozaon                                                                                          |
| قاچاق           | qâcâq         | kontrabanda, qochoq                                                                                                 |
| قاچاق چی        | qâcâqči       | kontrabanda bilan shug‘ullanadigan shaxs                                                                            |
| قاطرچی          | qâterči       | podachi                                                                                                             |
| قایق چی         | qâyeqči       | qayiqchi, qayiq haydovchisi                                                                                         |
| قراقچی          | qarâqči       | qaroqchi                                                                                                            |
| قراول           | qarâwol       | qorovul                                                                                                             |
| قزلباش          | qezelbâš      | qizilbosh, qizilboshi (tar) (eron shohi abbosning turkiy askarlarining xvi asrdan beri yashab kelayotgan avlodlari) |
| کشیک            | kešêk (kešek) | qoravul, qo‘riqchi                                                                                                  |
| کوچ             | kôč           | ko‘chmanchi                                                                                                         |
| کمپیر           | kampêr        | kampir                                                                                                              |
| یارگه           | yânga         | yanga, kelin, akaning xotini                                                                                        |
| (ایلچی) یلچی    | yelči (ilči)  | elchi, chopar                                                                                                       |

آنوقت در سکوت محض چنان داد سخن میداد که گفتی یگانه صندوقدار صندوقچه پر اسرار «شهر

فرنگ» است .

(اکرم عثمان// وقتی که نیها گل میکند)

تف لعنت خدا، پدرسگ! پدر سگ مه نگفتم که بچی حاکم استم بچی حاکم همو وختا سرت بوی قورمه میداد.

(اکرم عثمان// وقتی که نیها گل میکند)

شاغاسی و دو همراه دیگرش نفس زنان تعقیبش میکردند، ولی او در هوای خانه و لانه چنان سبک و چابک راه میرفت که شاغاسی چندین بار زیردل نفرین و لعنتش کرد .

(اکرم عثمان// وقتی که نیها گل میکند)

### 1.2.2. Narsa-buyum otlari

To‘plangan misollarimizda narsa-buyum otlari jami turkiy o‘zlashmalarning 37 % ini (103 ta) tashkil etdi.

Bular o‘z ichida quyidagi leksik-semantik guruhlariga ajratildi:

|         |             |                                                |
|---------|-------------|------------------------------------------------|
| ابریق   | ebriq       | ko‘za, qo‘lyuvqich (yuvinishg moslangan idish) |
| اجاق    | oĵâq (oĵây) | o‘choq, plita, pechka, kabob qo‘ra             |
| آقچه    | âqça        | tilla yoki mis tanga, aqcha                    |
| بچاق    | bčâq        | pichoq                                         |
| بشقاب   | bešqâb      | tarelka                                        |
| بغچه    | boqča       | bo‘xcha (kiyim-kechak soladigan halta)         |
| تکمه    | tokma       | tugma                                          |
| تلپک    | telpak      | telpak                                         |
| تتگه    | tanga       | tanga (kumush tanga 10-15)                     |
| توشک    | tôšak       | to‘shak, to‘shama                              |
| طوغ/توغ | tuğ         | bayroq, sanjoq (esk), tug‘ (esk)               |
| چخماق   | čaxmâq      | chaqmoq                                        |
| چکمه    | čakma       | etik                                           |

|                |             |                                                  |
|----------------|-------------|--------------------------------------------------|
| سم             | sôm         | so‘m                                             |
| صندوق          | sandug      | sandiq, katta quti                               |
| قاب            | qâb         | idish, lagan                                     |
| قازقان         | qâzqân      | qasqon                                           |
| قاشق           | qâšqoq      | qoshiq                                           |
| قالپاق         | qâlpâq      | qalpoq                                           |
| قایق           | qâyiq       | qayiq                                            |
| قبقاب          | qabqâb      | yog‘och kavush, yog‘och tag poshnali sandal      |
| قتی/ قطی/ قوطی | qoti        | quti                                             |
| قلچاق          | qolčâq      | qo‘l himoya sovuti                               |
| قلی            | quli        | qul, xizmatkor, malay                            |
| قلیچ           | qelêč       | qilich, shamshir                                 |
| قمچین یا قمچی  | qamčîn      | qamchi, darra                                    |
| قنداق          | qondâq      | yo‘rgak; qondoq, kafet (to‘p o‘rnatilgan stanok) |
| قیچی           | qayči       | qaychi                                           |
| یراق           | yarâq       | qurol-yarog‘                                     |
| یرلیغ          | yarlêq      | yorlig‘, farmon, qaror                           |
| قیان/قاپان     | qapân/qâpân | tarozi                                           |
| قایش           | qâyîš       | qayish, kamar, tasma                             |
| قره تیکان      | qara têkân  | yantoq (suv sathidan 1000 m balandlikda o‘sadi)  |
| قوپوز          | qupuz       | torli musiqa asbobi                              |

نه از قاش پیشانی نه از تحقیر، نه از کتره و کنایه باک داشت.

(اکرم عثمان // میانه رو)

‘Na o‘zgalarning qosh-qovog‘i, na kamsitish-u na kinoyadan qo‘rqmasdi’.



پس جسم و جان کودکان چون بره های نوزاد گوسفندان قره قل زیر تیغ میرودد تا تساوی و تعادل قدرت دو طرف بهره کش حفظ شود.

(داکتر اکرم عثمان // وضع رقتبار کودکان در جهان سوم/ [www.kabulnath.de](http://www.kabulnath.de))

### **Oziq-ovqat otlari 7 % (19 ta)**

|             |          |                                                     |
|-------------|----------|-----------------------------------------------------|
| آزوغه/آذوقه | âzuqa    | ozıq-ovqat                                          |
| آش          | âş       | 1 ovqat, taom; 2 suyuq osh (hamirli)                |
| تقلی        | tôqli    | qo‘zi, qo‘zichoq, to‘qli                            |
| سورسات      | susât    | yem xashak                                          |
| فاتق        | qâteğ    | yegulik, yemish, non bilan yeyiladigan hamma ovqat. |
| قاربوز      | qârbuz   | tarvuz                                              |
| قتق         | qateq    | qatiq                                               |
| قروت        | qorut    | qurt                                                |
| قورمه       | qowrma   | qovurma                                             |
| قیماق       | qaymaq   | qaymoq                                              |
| قیمه        | qêma     | qima                                                |
| کیپا        | kipâ     | hasip, ichak (ovqat)                                |
| یاغ         | yâğ      | yog‘                                                |
| قره قاط     | qara qât | qorag‘at (cmorodina)                                |

از آن خانه اکثراً بوی آش و منتو بالا می بود و مادر مرتضی زن سفید بخت که ملای مزاری گاه گاه برای آنها «ماش آیه» و «آش سمرقندی» می فرستاد و از سوی ببو بالمقابل «نذر دیگچه» و «شلهء غوربندی» دریافت می کرد.

(اکرم عثمان // بازگشت)

### **Hayvon va parranda otlari 11% (30 ta)**

|            |        |              |
|------------|--------|--------------|
| اردک       | ôrdak  | o‘rdak       |
| ارسلان     | arslân | arslon, sher |
| اولاغ/الاغ | ôlâğ   | eshak, uloq  |

|              |           |                                        |
|--------------|-----------|----------------------------------------|
| ایلان        | êlân      | ilon                                   |
| جره          | ĵra       | qirg‘iy, qarchig‘ay (ekagi)            |
| حقار         | hoqâr     | qarqara                                |
| سیچغنه       | siĉğana   | qirg‘iy, qrchig‘ay, lochin (urg‘ochi)  |
| قاطر/قاتر    | qâter     | xachir                                 |
| قچقار        | qoĉqâr    | qo‘chqor                               |
| قراقوش / قره | qarâquš   | cho‘l burguti, qoraqush (urg‘ochi)     |
| قوش          |           |                                        |
| قرغوی        | qarğuy    | qirg‘iy, qarchig‘ay, lochin (urg‘ochi) |
| قزل آلا      | qezel âlâ | baliq turi (qizil xolli)               |
| قوچ          | quĉ       | qo‘chqor, shoxli qo‘chqor              |
| قورباقه      | qorbâqa   | qurbaqa                                |
| قوش          | quš       | qush                                   |

### Payt otlari 3% (9 ta)

|          |            |               |
|----------|------------|---------------|
| ایل      | yil        | yil           |
| ایت ایل  | it yil     | it yili       |
| تخاقویل  | taxâqu yil | tovuq yili    |
| تگوزیل   | taguz yil  | to‘ng‘is yili |
| توشقانیل | tušqân yil | quyon yili    |
| سچقانیل  | seĉqân yil | sichqon yili  |
| لوی ئیل  | luy yil    | yirtqich yili |
| یونت ئیل | yunet yil  | ot yili       |
| قوی ئیل  | qôy yil    | qo‘y yili     |

### 1.2.3. O‘rin-joy otlari

To‘plangan misollarimizda o‘rin-joy otlari jami turkiy o‘zlashmalarning 7 % ini (20 ta) tashkil etdi.

|            |      |      |
|------------|------|------|
| اتاغ/ اتاق | otâq | xona |
|------------|------|------|

|        |         |                                                        |
|--------|---------|--------------------------------------------------------|
| اسکله  | eskela  | 1 kemalar to‘xtaydigan joy; 2 prichal, arqon           |
| اطراق  | otrâq   | o‘troq (musofirni yo‘lda to‘xtash joyi)                |
| آغل    | âġel    | og‘ilxona                                              |
| الکا   | ôlka    | o‘lka, mamlakat, viloyat                               |
| باتلاق | bâtlâq  | botloq, botqoq                                         |
| چقور   | čoqur   | chuqur, cho‘nqir, chuqurcha                            |
| قشلاق  | qešlâq  | qishlash uchun joy, qishloq                            |
| قمرغه  | qamarġa | ov joyi (ohu va shunga o‘hshash hayvonlar ovlash joyi) |
| قورق   | qôroq   | qo‘riqxonona                                           |
| قوشون  | qôšôn   | kasalxona                                              |
| يىلاق  | yaylâq  | ko‘chmanchilarnig yozgi manzili                        |

آنگه از جا برخاست و سر را با لگدی محکم به آخر اتاق پرت کرد.  
(اکرم عثمان // وقتی که نیها گل مکنند)

#### 1.2.4. Mavhum otlar

To‘plangan misollarimizda mavhum otlar jami turkiy o‘zlashmalarning 6 % ini (16 ta) tashkil etdi.

|            |           |                                                                |
|------------|-----------|----------------------------------------------------------------|
| ارمان      | armân     | armon, qayg‘u, achinish                                        |
| اشتلم      | eštlom    | faxr va g‘alaba                                                |
| الغار      | elyâr     | hujum, hamla                                                   |
| بولغاق     | bulġâq    | fitna-fasod                                                    |
| جغات       | ĵiġât     | jihot, g‘am, qayg‘u                                            |
| کمک        | komak     | yardam, ko‘mak, madad                                          |
| یشلامیش    | išlâmiš   | yo‘l-yo‘riq; idora etish                                       |
| قنغال بازی | qenyâlâzi | Kelin bilan kuyovning to‘ydan oldingi mahfiy uchrashuvi (og‘z) |
| يورش/يرش   | yureš     | yurish, hujum                                                  |

فریاد بلند تر میشوند کسی کمک میطلبد.

## 1.2. Sifat

To‘plangan misollarimizda sifat so‘z turkumiga oid so‘lar jami turkiy o‘zlashmalarning 8 % ini (21 ta) tashkil etdi.

|             |             |                               |
|-------------|-------------|-------------------------------|
| اتراق       | otrâq       | o‘troq                        |
| آق          | âq          | oq (rang)                     |
| الغ         | ôloğ        | ulug‘, katta, buyuk           |
| بای         | bây         | boy, badavlat                 |
| بہادر       | bahâdor     | bohodir                       |
| چابک        | čâbok       | tez, epchil, chaqqon          |
| چاق         | čâq         | semiz                         |
| قاجار       | qâjâr       | jahli tez                     |
| قاچاقی      | qâčaqi      | Kontrabandaga oid             |
| قاق         | qâq         | quruq, qoq                    |
| قرمساق      | qormsâq     | razil, qbih, nobakor          |
| قزل         | qezel       | qizil                         |
| قلچماق      | qôlčemâq    | dayi, darbadar, bezori        |
| قلماش       | qalmâš      | esi past, kalta fahm, bema’ni |
| کته         | kata        | katta                         |
| یواش/یلاواش | yâwâš/yâwâš | sekin, asta                   |

میکنم تا باری در صورت لزوم افسارت را بکشم. اگر نیامدم تو بی راکب نیمانی ، دونده گی و چابکی تو همیشه ارزش خودش را دارد.

(اکرم عثمان// میانه رو)

Jami to‘plangan 302 ta turkiy o‘zlashmalarning 279 tasi (92 %) ot so‘z turkumiga oid. Shundan shaxs otlari 82 ta (29 %); narsa-buyum otlari 103 ta (37 %), hayvon va parranda otlari 30 ta (11 %), oziq-ovqat otlari 19 ta (7 %); o‘rin-joy otlari 20 ta (7 %); mavhum otlari 16 ta (6 %); payt otlari 9 ta (3 %). Sifat so‘z turkumiga oid o‘zlashmalar: 21 ta (8 %). O‘zlashmalarning morfologik tahlili

jarayonida eng ko'p o'zlashgan so'z turkumi birinchi o'rinda ot, ikkinshi o'rinda sifat so'z turkumi turishi kuzatildi.

Ishimizning bu bandida o'zlashmalarning struktur tahliliga ham to'xtalib o'tildi.

Jami to'plangan 302 ta turkiy o'zlashmalarning 207 tasi tub o'zlashma (78 %) (اتاق//اتاغ *ôtaq* 'xona', اجاق *ôjâq* 'o'choq', 'plita', 'pechka', 'kabob qo'ra', آش *âş* 'ovqat', 'taom'; ايماق *aymâq* aymoq, qabila, qavm, بگ *beg* 'bek' kabi), 39 ta affiksatsiya usuli bilan yasalgan o'zlashma (12 %) (سراغ *qâterçi* 'podachi', سراغ *sorâğ* 'so'roq'; 'qidiruv'; 'ma'lumot', قاچاق *qâcâq* 'kontrabanda', قايقيچى *qâyiqçi* 'qayiqchi' kabi), 30 tasi kompozitsiya usuli bilan yasalgan o'zlashma 10 % ni (قراقوم *qâra qôm* 'qora qum', قره قوش *qara quş* 'qara chug'irchiq' kabi) tashkil qildi.

### 1.3. Turkiy so'z yasovchi vositalar.

Turkiy tillarda shaxs oti yasovchilar orasida *-çi* affiksi eng qadimiy va mahsuldor sanaladi. O'rxun, uyg'ur va arab yozuvidagi yodgorliklarda, chunonchi, «Qutadg'u bilig», «Devoni lug'otit-turk», «Boburnoma» va undan keyingi yozma yodgorliklarda *-çi* suffiksi bilan yasalgan shaxs otlari anchagina uchraydi<sup>6</sup>.

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lug'atayn» asarida *-çi* suffiksining mahsuldorligi va anglatgan ma'nolarini alohida qayd etadi: «Yana bir adolari borki, ba'zi alfozning so'ng'ida *ch*, *i* ki, *chi* lafzidur, orttirurlar, yo mansabning , yo hunarning, yo peshaning izhori uchun, forsiyda yo'qtur, balki alar ham turkcha ayturlar...»<sup>7</sup>.

Hozirgi dariy tilida *-çi* suffiksi mahsulli (so'z yasash vazifasini to'xtatmagan, ozmi-ko'pmi miqdorda so'z yasash uchun xizmat qilayotgan) affikslar qatoriga kiritiladi<sup>8</sup>. Biroq u kammahsul – hozirgi vaqtda yangi so'z

---

<sup>6</sup> Бу ҳақда қаранг: Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Т.:Фан, 1965. – Б.47.

<sup>7</sup> Навоий А. Муҳокаматул-луғатайн//Танланган асарлар. – Тошкент, 1948.Т.3. – Б. 187.

<sup>8</sup> Бу ҳақда қаранг: Пейсиков Л.С. Очерки по словообразованию персидского языка. - М.: Изд-во МГУ, 1973. - С. 179; Уралов Х.У. Научно-техническая терминология современного языка дари. –Т.: Фан, 1990. – С.23.

yasashda kam ishtirok etadi. Materiallarimiz tahlilida -*či* suffiksi ishtirokida uchta soʻz uchradi:

... عده یی از میزان و سانسور چیان وابسته به دستگاه های فرمانروا شده اند

(سالار عزیزپور. ضرورت باز نویسی تاریخ ادبیات افغانستان)

...*edda-ê az momayyezân wa sânsurčiyân wâbasta ba dastgâhhâ-ye farmânrawâ šoda-and*

‘...ekspert va senzuralardan baʼzilari rahbariyat (boshqaruv apparati) izmida boʻldilar...’;

... بلکه با آگاهی و رضای تمام، به منظور اثبات تماشاچی و بی‌عرضه بودن تان مقابل جنگ

مقاومت و ...

(درباره مطلب «الضدان لایجتماعان» از رهنورد زریاب // پیام زن، 45، مارچ، 1997)

...*balke bâ âgâhi wa rezâ-ye tamâm, ba manzur-e esbât-e tamâšâči wa bêorza budanetân moqâbel-e jang-e moqâwemat wa...*

‘...balki toʻla ongli va ixtiyoriy ravishda qarama-qarshi janglar qarshisida tomoshabin va oʻquvsiz boʻlganligingizni isbotlash maqsadida...’;

بدماش شکارچی تفنگش را برداشت و برای شکار پلنگ روانه بیابان شد

(حکایت کرزای و بدماش شکارچی // شبکه اطلاع رسانی افغانستان. [www.afghanpaper.com/htm](http://www.afghanpaper.com/htm))

*Badmâš šekârči tofangašrâ bardašt wa barâye šekâr-e palang rawâna-ye biyâbân šod*

‘Bezori ovchi miltigʻini oldi va qoplon ovlash uchun biyobonga joʻnadi’.

*či* suffiksi turkiy oʻzlashmalar bilan bir qatorda, dariy tilining oʻz va oʻzlashgan soʻzlaridan ham shaxs otlari yasagan. Materiallar tahlili hozirgi dariy tilida *či* suffiksi ishtirokidagi yasalmalarning baʼzilari dariy tilining oʻz yasovchilari bilan ham parallel qoʻllanilishini koʻrsatasi: *tablči* = طبل زن = تنبور *waylonnawâz* ‘skripkachi’, *waylonči* = ویلون نواز = ویلونچی *tablzan* ‘barabanchi’, *tamburči* = تنبور نواز = تنبورچی *čapâwalči* = چاپول گر = چاپولچی *čapâwalgar* ‘talonchi’, *samâwârči* = سماواری = سماوارچی *šekârči* = شکاری = شکارچی *qâcâqi* = قاچاقی = قاچاقچی

‘ovchi’, تماشاچى *tamâšâčî* = تماشابين *tamâšâbin* ‘tomoshabin’, قايق *qâyeqčî* = قايق ران *qâyeqrân* ‘qayiqchi’, خدمتچى *xedmatčî* = نفر خدمت *nafarxedmat* (xapб.) ‘navkar’. Bu esa tilning keyingi taraqqiyotida -čî suffiksining kammahsullik darajasi saqlanib qolishini bildiradi<sup>9</sup>.

Shuningdek, turkiy tilidagi باشى *bâšî* leksemasi ham qo‘shma so‘z yasashda ishtirok etadi: بيست باشى *bist-bashi* ‘yigirma kishilik bo‘lim boshlig‘i’, موټروان باشى *motarwan-bashi* ‘garaj boshlig‘i’.

---

<sup>9</sup> Bu haqda qarang. Алимова Х. Значения суффикса -čî в языке дари // Востокведение. – Т.: ТашГИВ, 2008. – № 1-2. – С. 104-107.

## IKKINCHI BOB

### DARIY TILIDA TURKIY O‘ZLASHMALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Turkiy tildan kirgan o‘zlashmalarning dariy tilidagi semantik tahlili ularni manba tillari nuqtayi nazaridan monosemantik va polisemantik o‘zlashmalarga bo‘lib o‘rganishni taqozo etadi.

Monosemantik o‘zlashmalarga manba tilning o‘zida bir ma’noli bo‘lgan so‘zlarni kiritamiz. O‘zlashish jarayoni va undan keyingi ma’nolaridagi ro‘y bergan o‘zgarishlarni hisobga olib quyidagicha farqlash mumkin:

1. **Ma’nosi dariy tiliga to‘la ko‘chgan o‘zlashmalar.** Bu so‘zlar odatda, turkiy tilning o‘zida bir ma’noga ega va shu ma’nosi bilan dariy tiliga o‘zlashgan. Bular asosan terminologik funksiyalarni bajaradi. Masalan, *توپ* *tôp* ‘zambarak’; *تمغا* *tamyâ* ‘tamg‘a’, ‘muhr’; *بچاق* *bçâq* ‘pichoq’; *قراقول* *qorâqol* ‘qorako‘l teri’ va boshqalar.

Bu guruhga kiruvchi so‘zlarning xarakterli tomonlaridan biri shuki, aniq bir funksional sferaga xos va semantik turg‘undir.

2. **Ma’nosi toraygan o‘zlashmalar.**

3. **Ma’nosi kengaygan o‘zlashmalar.**

#### 2.1. Dariy tilidagi turkiy o‘zlashmalarda ma`no torayishi

Bunday so‘zlar turkiy tilda umumiy ma’noga ega, o‘zlashgan tillarda esa ular aniq bir predmetni anglatadi. Ya’ni umumiylikdan konkretlashuvga o‘tiladi. Masalan,

*آش* *âş* ‘suyuq oshi (turkiyda umuman “ovqat” ma’nosida)’. Bu so‘z turkiy tilda ‘harakat’ (mazkur ma’nosiga misol-isbot keltiring) va ‘taom’ ma’nosida ishlatilsa, dariy tilida faqat ‘oziq-ovqat’ ma’nosida ishlatiladi.

*بغاز* - *bo‘g‘oz* so‘zi turkiy tilda 1) ‘geografik termin’, 2) ‘efemizm (ikkiqat)’ ma’nosida ishlatilsa, dariy tiliga faqat geografik termin ma’nosi o‘zlashganini misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin.



Turkiy tilda 1) *hamroh*, 2) *yerning tabiiy yo'ldoshi* ma'nolarini bildiruvchi يولداش so'zi dariy tilida faqat *hamroh* ma'nosida ishlatiladi.

باش bâš so'zi turkiy tilda quyidagi ma'nolarga ega: 1) bosh, kalla; 2) aql-hush, miya: Tog'ning ko'rki tosh bilan, odam ko'rki bosh bilan (maqol). 3) boshliq, rahbar: Yaxshi yigit davraning boshi (maqol). 4) boshchilik., rahbarlik qiluvchi, eng katta yoki eng yuqori: Bosh vrach, bosh og'ronom. 5) eng muhim, asosiy: Bosh maqola, bosh masala. 6) eng oldingi, birinchi: Bosh farzand, bosh kelin. 7) odam, kishi: Oilada o'n bosh edi. 8) o'rin, karavot va shu kabilarni shu kabilarning yostiq qo'yiladigan yuqori tomoni: Hoji Kumushning boshiga kelib o'tirdi (A. Qodiriy). 9) tik narsalarning tepa qismi, uchi, cho'qqisi: shamol bo'lmasa daraxtning boshi qimirlamaydi (maqol). 10) cho'ziq, davomli, bo'yli narsalarning boshlanish joyi yoki oxiri, etagi: Ko'chaning boshi, dalaning boshi. باش bâš so'zi dariy tilida esa 1) boshliq; 2) bosh; 3) sardor kabi ma'nolarga ega.

O'zlashmalarni yig'ishda foydalanilgan internet maqolalaridan, jurnal va gazeta sahifalaridan va boshqa manbalardan to'plangan misollardan ma'lum bo'lishicha, dariy tilida turkiy tilga mansub bo'lgan anchagina so'zlardan hozirgi kunda foydalanib kelinyapti. Ulardan ayrimlari Afg'onistondagi dariyzabon xalqning kundalik hayotida tez-tez uchrab tursa, ba'zilar ayrim soha terminlari sifatida onda-sonda qo'llanadi. Shu sababli bu o'zlashmalarning dariy tilidagi taqdiri, milliy til va so'zlashuv nutqidagi qo'llanilish o'rni ham turlichadir. آقا âyâ 'janob', اتاق otâq 'xona', اردو ordu 'qo'shin', 'lager', kabi o'zlashmalar kundalik hayot va turmush sohalarini ifodalashda faol qo'llanib kelinyapti.

Ma'lumki so'z o'zlashishi dastlab so'z va uning ayrim leksik ma'nolari holatida yuz berib, semantik tuzilishi to'la o'zlashmaydi. Chunki tilga kirib kelgan dastlabki davrda o'zlashmaning ma'nosi to'la beriladigan va ifodalanadigan kontekst hali shakllanmaydi. Zero u xalqning o'zaro madaniy munosabatiga bog'liq holda unga tobe munosabatda qabul qilingan narsa va predmetlarning ifoda etuvchi leksik ma'nosi orqaligina qabul qilingan bo'ladi. Chet so'z asta-sekin tilda ma'lum leksik birliklar bilan bog'liq holda ishlatila boshlaydi. Nutqda muayyan qo'llanilish shakllarini oladi. Til egalari ona tillaridan unga ma'no jihatidan mos

ekvivalent topishga harakat qilishadi. Mabodo, shunday til birligi bo'lsa, o'zlashmaning ma'nosi yana oydinlashadi.

Ma'lumki lingvistik adabiyotlarda "ikki yoki undan ortiq so'zni o'zaro sinonim qiladigan narsa bu so'zlar semantik strukturasidagi asosiy qismning, ya'ni leksik ma'noning bir xilligi, leksik ma'noni yuzaga keltiradigan komponentlarning bir xil bo'lishi"<sup>10</sup> deb ta'riflanadi. Shuning uchun yuqorida nomlangan o'zlashmalar va ularning dariycha ekvivalentlari o'zlarining mazkur matnlarda anglatib kelayotgan ma'nolari bilan bir-biriga sinonim bo'la oladilar.

Dariy tilida ekvivalentlari bor bo'lgan o'zlashmalar. Ma'nolari o'xshash, to'la, mos va muvofiq ekvivalenti bor bo'lgan o'zlashmalar uchraydi.

قزل *qezel* – سرخ *sorx* - آل *âl* 'qizil', 'to'riq', 'zar';

آق *âq* - سفید *safigid* 'oq' (rang);

ياغ *yâğ*, روغن *roğan*, 'yog'

O'zlashmalardagi bunday xususiyatlar dariy tilining ma'lum darajada taraqqiyotiga, unda fikr ifodalashning imkoniyatlarini yanada oshirishga olib kelmoqda. Shu sababli ko'pchilik o'zlashmalardan keng va o'rinli qo'llanilmoqda. Bu guruh o'zlashmalar qatoriga تمغه *tamğâ* 'tamg'a', 'muhr', توى *toy* 'to'y', اطاق *otâq* 'xona', اولوس *olus* 'ulus', توغ *tuğ* 'bayroq' kabi o'zlashmalarni kiritishimiz mumkin.

Dariy tilida mos ekvivalenti yo'q o'zlashmalar. O'zlashmalar orasida juda ko'p so'zlarning dariy tilida ular anglatgan ma'no yoki tushunchalarga mos keladigan ekvivalentlari yo'q. Shu sababli tilda mazkur o'zlashmalarning o'zlarini qo'llamasa bo'lmaydi, zero, uzundan-uzun izohlar fikr mohiyatini chalkashtirib yuborishi mumkin. Bu tur o'zlashmalar qatoriga آغل *âğel* 'og'il', 'molxona', جارچی *jârçi* 'jarchi' kabi turkiy o'zlashmalarni kiritisa bo'ladi.

---

<sup>10</sup> O'zbek tili leksikologiyasi. -T 1981. - B 271

Ular o'zlarining ma'nolari va qo'llanilish o'rinlari bilan dariyzabon xalqning ongi va tiliga chuqur singib ketgan o'zlashmalardir. Ular shu xalqning kundalik hayotida va turmushida ko'p ishlatiladi va hamma uchun tushunarlidir.

## 2.2. Dariy tilidagi turkiy o'zlashmalarda ma'no kengayishi

Til rivojlanishi jarayonida so'zlarning ma'no torayishi bilan ma'no kengayishi jarayoni ham kuzatiladi. So'zlarda ma'no kengayishi, ba'zi bir ma'nolarning asl ma'nodan uzilib, omonimlar hosil qilishiga olib kelsa, ba'zida, bitta so'z qobig'ida bir-biriga zid ma'nolar - antonimlar vujudga kelishi ham kuzatiladi. Bu jarayonni dariy tiliga o'zlashgan turkiy o'zlashmalarda ham ko'rishimiz mumkin.

**Ma'nosi kengaygan o'zlashmalar.** Bu so'zlar turkiy tilda konkret bir ma'noga ega. O'zlashgan tillarda esa ularning ma'nolari umumlashadi. Masalan: turkiy tilda *bo'sh*, *yaydoq joy* ma'nosini bildiruvchi يىلاق *yaylâq* so'zi dariy tilida 1) dacha (shahar tashqarisidagi hovli-joy); 2) tog' yaylovlari; 3) ko'chmanchilar manzili. Turkiycha شېلاق *šapalaq* so'zi dariy tilida quyidagi ma'nolarga ega: 1) to'pponcha; 2) shapaloq, tarsaki ma'nolarini bildiradi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rishimiz mumkinki, turkiy so'zlar dariy tiliga o'zlashgach ma'no kengayishiga uchragan.

Polisemantik o'zlashmalar guruhidagi so'zlar dariy tilida o'z ma'nolarini kengaytirgan. Til egalari tasavvurida ichki va tashqi o'xshashlik, funksiyalaridagi monandlik kabi qiyoslanish omillari ostida o'zlashmalar anglatuvchi tushunchaning hajmi va soni oshadi. U bilan boshqa narsa va predmetlar nomlana boshlaydi. Masalan: turkiy tildagi مشت *mošt* so'zi dariy tilida 1) musht; 2) mushtlamoq; 3) hovuch kabi ma'nolarni bildiradi. Bu holatda ham ma'no kengayishini kuzatishimiz mumkin.

O'tgan asrlarda dariy tiliga turkiycha harbiy atamalar, jumladan, turkiycha lavozimlarni ifodalovchi atamalar o'zlashtirilgan va hozirgi kunda ularda ma'no o'zgarishlari amalga oshib, arxaik so'zlar qatoridan o'rin olgan: ایشک آقاسی *ešek âqâsi* – turkiy tilda bu so'z *eshik og'asi*. Ushbu so'z semantik jihatdan ma'no

kengayishiga uchrab *bosh marosimchi* ma'nosini kasb etgan. Mazkur so'zning semantik doirasi kengayishiga yana bir isbot shuki, u *hovli vaziri (ministri)* ma'nosini ham ifodalaydi. Hozirgi kunda *eshik og'asi* so'zi uchramaydi, keyinchalik rasmiy tilda uni dariy tilidagi وزير *wazir* وزراء *wozarâ* so'z siqib chiqargan.

O'zlashmalarning semantik o'zgarishlari haqidagi mulohazalarga yakun yasab shuni aytish mumkinki, ularning ma'nolari, avvalo, turkiy, undan keyin dariy tilida ma'lum va muayyan o'zgarishlarni boshidan kechirgan. O'zlashmalarda ma'no torayishi, kengayishi, qisman va to'la o'zgarishi, ma'no bo'yoqlarining yangi jilosi, ma'noning ko'chma xarakter olishi kabi bir qator o'zgarishlar yuz bergan. Ular dariy tili lug'at tarkibiga ta'sir qilibgina qolmay, balki birgalikda yangi-yangi leksik birliklar yaratishgan. Bularning hammasi, dariy tilining o'z imkoniyatlarini faollashtirishga, leksik jihatdan rivojlanishiga va funksional taraqqiy qilishiga katta hissa qo'shadi. Umuman olganda turkiy tildan kirib kelgan o'zlashmalarning qo'llanish sohalari va o'rinlari turlicha xarakterga ega. Ularni bir necha tematik guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin.

### **2.3. Dariy tilidagi turkiy o'zlashmalarda fonetik, morfologik va grammatik o'zgarishlar**

Har qanday tilda o'zlashgan begona til unsurlari, yangi til muhitida, uzoq muddatli moslashuv jarayonini boshidan kechiradi. Bu moslashuv jarayoni til sistemasining turli tarkibiy bosqichlarida amalga oshadi. Odatda begona so'z yangi til muhitida, fonetik, grafik, ma'noviy, grammatik va uslubiy bosqichlarda moslashuv jarayonini boshdan kechiradi.

O'zga tildan moslashuv jarayoni bu uzoq muddatli jarayon bo'lib, to yangi so'z yoki birikma til sistemasining hamma bosqichlarida o'z o'rnini topmaguncha o'zlashtiruvchi til sistemasiga singib ketmaydi. Fikrimizni aniqroq ifodalash uchun misollar keltiramiz. Turkiy tildan o'zlashgan بلق *so'zi* dariy tili muhitiga kirgandan so'ng fonetik bosqichda moslashuv jarayonini boshdan kechiradi. Bu so'z tarkibida "u" fonemasi (*bulak*) "o" ga aylangan. الف *oloğ* so'zida ham ikkinchi

bo‘g‘indagi “u” (*ulu*) “o” ga aylangan, **الكا** *olkâ* so‘zida esa oxirgi bo‘g‘indagi “a” (*ülka*) fonemasi cho‘ziq “o” fonemasiga almashgan. **بہادر** *bahâdor* so‘zining oxirgi bo‘g‘inidagi “i” (*bahadir*) fonemasi “o” ga almashgan.

Misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki turkiy tildan kirib kelgan so‘zlar dariy tilining imlo va talaffuz qoidalari ta’sirida ma’lum darajada adaptatsiya jarayonini boshdan kechiradi. Bu jarayon diaxronik va sinxronik nuqtayi nazardan olib o‘rganilsa mazkur o‘zlashmalar dariy tili lug‘at tarkibiga kirib kelish jarayonida, so‘zlashuv tilidagi shaklida yozuvga qabul qilinganligi ma’lum bo‘ladi. Masalan:

| Dariycha | Transkripsiya | Turkcha             | O‘zbekcha          |
|----------|---------------|---------------------|--------------------|
| اجاق     | Ojâq          | ocak                | o‘choq             |
| بچاق     | Beçâq         | biçak               | pichoq             |
| تمغا     | Tamğâ         | taṃğa               | tamg‘a             |
| تنسوق    | Tansuq        | tansık              | tansiq             |
| تومان    | Tumân         | tuman (don, şalvar) | tuman              |
| دلماج    | Delmâç        | dilmaç (çevirmen)   | tilmoch (tarjimon) |
| سراغ     | Sorâq         | soru                | so‘roq             |
| قرغوی    | Qerğuy        | kırğıy              | qirg‘iy            |
| مشت      | Môšt          | mušt                | musht              |
| جارچی    | Jârçi         | carçi               | jarchi             |
| قایق     | Qâyıq         | kayık               | qayiq              |

Chet tilidan o‘zlashgan so‘z va iboralar fonetik va grafik moslashuv jarayoni bilan birga grammatik jarayonni boshdan kechiradi. Grammatik moslashuv

jarayoni morfologik va sintaktik tarzda amalga oshadi. Morfologik bosqichda chet tilidan o'zlashgan so'z turkumi dariy tilida shu turkumga oid grammatik kategoriyalarga moslashadi. Masalan, ot so'z turkumiga oid bo'lsa ko'plik kategoriyasi, otdan so'z yasash usullariga, sifat so'z turkumiga oid bo'lsa sifatlarning darajasiga, so'z yasash modellariga, fe'lga tegishli bo'lsa, fe'lning zamon, mayl va nisbat kategoriyalariga moslashadi. Masalan:

توغدار *tuğ* 'tug' egasi'. توغ turkiycha so'z + دار *dâr* dâştan fe'lining HZN qo'shilishidan hosil bo'lgan,

کمکی *'komaki'* yordamchi, ko'makchi. کمک turkiycha so'z + ی (*yâ-ye* nakara) qo'shilishidan hosil bo'lgan.

خانان *xânân* 'xanlar'. خان *xân* turkiycha so'z + ان *ân* dariy tilidagi ko'plik qo'shimchasi qo'shilgan.

قاچاقچى *qâčâqigari* 'kontrabandaga oid'. قاچاق *qâčâq* turkiycha so'z + گر *gar* shaxs oti yasovchi qo'shimcha + ی (*yâ-ye* nesbat) kabi qo'shimchalar qo'shilishidan hosil bo'lgan.

Bundan tashqari turkiy leksemalar qo'shma fe'llarni tarkibiy qismi bo'lib kelishi mumkin.

Fe'lning ot qismi vazifasida:

قادی کردن *qâti kardan* 'aralashtirmoq',

قاچاق کردن *qâčâq kardan* 'kontrabanda yo'li bilan olib o'tish'

کوچیدن *kôčidan* 'ko'chmoq',

Sintaktik bosqichda yangi o'zlashgan chet so'zlari o'zidan oldin va keyin kelgan dariy tilidagi so'zlar bilan munosabatga kirishadi va dariy tilidagi mavjud so'z birikmalari yasash modellari: izofali, ko'makchili va bog'lovchilar vositasida so'z birikmasi hosil qiladi. Masalan:

خانی بزرگ *xânin-e bozorg* 'ulug' xonlar';

حقار سفید *xoqâr-e safêd* 'oq turna'

## XULOSA

Bitiruv malakaviy ishimizda hozirgi dariy tilidagi 302 ta turkiy o'zlashmalar ustida ish olib bordik. Malakaviy ish kirish, ikki bob va xulosadan iborat bo'lib, avvalo, o'zlashmalarning tarixiy ildizlariga, ularning leksik-semantik va morfologik tahliliga, shuningdek, mo'na xususiyatlariga e'tibor qaratdik. Ishimizning birinchi bobida hozirgi dariy tilidagi turkiy o'zlashmalar morfologik va struktur tahlil etildi. Har bir o'zlashma so'z ustidan atroflicha tahlil o'tkazishga harakat qildik. Ularni mavzular bo'yicha guruhlariga ajratib, soni va foizini aniqladik. Morfologik tahlil jarayonida jami to'plangan 302 ta turkiy o'zlashmalarning 279 tasi (92 %) ot so'z turkumiga oid. Shundan shaxs otlari 82 ta (29 %); narsa-buyum otlari 103 ta (37 %), hayvon va parranda otlari 30 ta (11 %), oziq-ovqat otlari 19 ta (7 %); o'rin-joy otlari 20 ta (7 %); mavhum otlari 16 ta (6 %); payit otlari 9 ta (3 %). Sifat so'z turkumiga oid o'zlashmalar: 21 ta (8 %). O'zlashmalarning morfologik tahlili jarayonida eng ko'p o'zlashgan so'z turkumi birinchi o'rinda ot, ikkinshi o'rinda sifat so'z turkumi turishi kuzatildi.

Struktur tahlil davomida jami to'plangan 302 ta turkiy o'zlashmalarning 207 tasi tub o'zlashma (78 %) اتاق//اتاغ *ôtaq* 'xona', اجاق *ôjâq* 'o'choq', 'plita', 'pechka', 'kabob qo'ra', آش *âş* 'ovqat', 'taom'; ايماق *aymâq* aymoq, qabila, qavm, بگ *beg* 'bek' kabi), 39 ta affiksatsiya usuli bilan yasalgan o'zlashma (12 %) قاطرچی *qâterçi* 'podachi', سراغ *sorâğ* 'so'roq'; 'qidiruv'; 'ma'lumot', قاجاق *qâcâq* 'kontrabanda', قايیچی *qâyiçî* 'qayiqchi' kabi), 30 tasi kompozitsiya usuli bilan yasalgan o'zlashma 10 % ni قارا قوم *qâra qôm* 'qora qum', قرا قوش *qara quş* 'qara chug'irchiq' kabi) tashkil qildi.

Ikkinchi bobida esa o'zlashmalarning ma'no xususiyatlari o'rganildi. Bunda asosan ma'no torayishi, kengayishi va yangi ma'no kasb etish holatlari o'rganildi va ular ham jummlalar tarkibida ko'rib chiqildi.

Hozirgi davrda Afg'onistonda turkiy tillardan o'zlashgan o'zlashmalarning ba'zilar este'molda juda ham kam qo'llanilmoqda. Natijada ba'zi bir turkiy o'zlashmalar iste'moldan chiqib ketib, arxaik so'zlar qatoriga kirib qolmoqda. Ular faqatgina tarixiy asarlar va manbalarda uchrashi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### O‘zbek va rus tillarida:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T., 2009.
2. Alimova X. Значения суффикса چى -čī в языке дари // Востоковедение. – Т.: ТашГИВ, 2008. – № 1-2. – С. 104-107.
3. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. - T., 2008.
4. Jumaniyozov O. O‘zbek tiliga german tilidan o‘zlashgan o‘zlashmalar.
5. Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Т.:Фан, 1965. – Б.47.
6. Навоий А. Муҳокаматул-луғатайн//Танланган асарлар. – Тошкент, 1948.Т.3. – Б. 187.
7. Киселева Л.Н.Язык дари Афганистана.- Москва, 1985.
8. Киселева Л.Н. Очерки по лексикологии языка дари. – М.: Наука, 1973.
9. Пейсиков Л.С. Лексикология современного персидского языка. М., 1975
10. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - М., 2001
11. Шека Ю. В. Турецко-русский и русско-турецкий словарь М., 2006
12. Şürü Halûk Akalin. Türkçe sözlük . –Ankara, 2005

### Dariy tilida

1. A.Afg‘oniynavisning “افغان قاموس” uch jildli izohli lug‘ati (Kobul, 1957-59);
2. Muhammad Siddiqorning “زبان دری و اختلاط آن با زبانهای بیگانه” (Peshovar, 2000);
3. Inoyatulloh Shahroniyning “ضرب المثلهای دری افغانستان” (AQSh, 1998);
4. A.U.Ko‘zgarning hikoyalar to‘plami olindi;

۵. علی اکبر دهخدا. لغتنامه. تهران ۱۳۲۴

۶. محمد صادق ناییب. واژگان ترکی در زبان پارسی. ۱۳۸۰



### **Internet saytlari**

1. [www.afghanistan.ru](http://www.afghanistan.ru)
2. [www.afghannews.com](http://www.afghannews.com)
3. [www.raziqfaani.com](http://www.raziqfaani.com)
4. [www.pajhwok.com](http://www.pajhwok.com)
5. [www.zhwak.com](http://www.zhwak.com)
6. [www.rawzana.com](http://www.rawzana.com)
7. [www.afghanasamai.com](http://www.afghanasamai.com)
8. [www.nai.com](http://www.nai.com)
9. [www.ayanda.org](http://www.ayanda.org)
10. [www.afghana.com](http://www.afghana.com)